
YANGI O'ZBEKISTON - YANGI IMKONIYATLAR DAVRI!

Hamkorlik ufqlari!

Bugun Rishton tumani va Rossiyalik tadbirkor Fadus Faxsuddinov boshchiligidagi ishbilarmonlar o'rtasida kulolchilik hamda savdo-iqtisodiy sohalarda hamkorlikni yo'lga qo'yish yuzasidan onlayn uchrashuv tashkil etildi.

Tadbirda Rishton tumani hokimi Sufhonjon Soliev, tuman hokimi o'rinbosari, Investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i Abduqahhor Jo'raboev va rossiyalik tadbirkorlar ishtirok etdilar.

Ushbu onlayn uchrashuv Rishton imidjini ilgari surish va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga qaratildi. Tadbir ko'tarinki ruhda o'tkazilib, ishtirokchilar kelgusida ham faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida bunday uchrashuvlarni tez-tez o'tkazilishini belgilab oldilar.

Uchrashuv yakunida rossiyalik tadbirkorlar sentyabr oyida Rishton tumaniga tashrif buyurishlari kelishib olindi.

2022-08-13 14:31:31